

THE PEDAGOGICAL NECESSITY OF TEACHING ENGLISH TO PRIMARY GRADE STUDENTS BASED ON INTERACTIVE TEACHING METHODS

Raimova Zuhra Abdurahmon qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat Pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi yo‘nalishi magistratura 1-bosqich talabasi

Raimovazuhra84@gmail.com

Abstract

This article analyzes the pedagogical and psychological significance of using interactive methods in teaching a foreign language to primary grade students abandoning traditional approaches and using them. The cognitive, concentration skills and motivational factors of young school-age children are studied, and it is scientifically based on why interactive methods increase the effectiveness of language acquisition. The article gives recommendations on practical application of Total Physical Response (TPR), gamification and multimedia.

Keywords: Primary education, interactive methods, English, pedagogical necessity, communicative competence, cognitive development, game technology, motivation.

Introduction

Kirish

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘rganish zamonaviy ta‘lim tizimining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasida chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, ta‘limni erta yoshdan boshlashga qaratilgan e‘tibor bejiz emas. Biroq, boshlang‘ich sinf (1-4 sinflar) o‘quvchilariga chet tilini o‘rgatish yuqori sinflarga qaraganda tubdan farq qiluvchi pedagogik yondashuvni talab etadi.[1]

Xorijiy tilni erta bosqichdan o‘rgatish global ta‘lim jarayonining ustuvor maqsadlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ingliz tili — xalqaro kommunikatsiya, ilm-fan, texnologiya va diplomatiya tili sifatida boshlang‘ich ta‘limning tarkibiy

qismilaridan biri bo‘lib bormoqda. Shu bois o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, ularni muloqotga jalb qiluvchi va faol bilish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi metodlarga ehtiyoj yuqori. Interfaol metodlar bugungi didaktikaning shu talabiga javob beruvchi eng samarali usullardan biri sifatida qaralmoqda, bilimlarni shaxsiy tajriba asosida o‘zlashtirishga imkon yaratadi.

Interfaollik tushunchasi va uning didaktik asoslari

Interfaollik (ing. interaction) — ta‘lim jarayonida o‘quvchi, o‘qituvchi va o‘quv muhitining o‘zaro bilish aloqalari majmuyi bo‘lib, kommunikativ yondashuv va faoliyat nazariyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Interfaol o‘qitish jarayoni o‘zi nima maqsadga hizmat qiladi aslida o‘quvchilarga yani:

O‘quvchi bilimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki uni ijodiy qayta ishlab, tushunib, amaliy faoliyatga tatbiq etadi;

O‘rganish jarayoni shaxslararo muloqot, ijtimoiy hamkorlik va mazmunli faoliyat orqali amalga oshadi;

Bilim nutq faoliyatlari integratsiyasi (listening–speaking–reading–writing) orqali kompleks shakllanadi.

Interfaollikning bilimlar uzatish emas, balki bilim yaratish konsepsiyasiga asoslanganligi boshlang‘ich ta‘lim jarayoni uchun ayniqsa muhim.

Boshlang‘ich ta‘lim yoshidagi o‘quvchilar quyidagi xususiyatlarga ega:

- bilish jarayoni asosan vizual-obrazli xarakterga ega;
- o‘yin va harakatlar orqali axborotni tezroq qabul qiladi;
- emotsional munosabat o‘rganish samaradorligini oshiradi;
- taqlid qilish mexanizmi kuchli, bu esa til o‘rganishda eng muhim omil;
- diqqatning uzoq muddat jamlanishi qiyin, shu sabab dinamika talab etiladi.

Interfaol metodlar mazkur xususiyatlarni hisobga olib, o‘yin, muloqot, muhokama, dramatizatsiya, harakat va vizual vositalarni birlashtiradi. Bu esa o‘quv jarayonini psixologik jihatdan qulay va tabiiy qiladi.[1]

Shu boisdan pedagogik zaruriyat shundan iboratki, 7-10 yoshli bolalarda mavhum mantiqiy fikrlashdan ko‘ra, ko‘rgazmali-obrazli fikrlash ustunlik qiladi. Ular uzoq vaqt davomida bir joyda o‘tirib, grammatik qoidalarni yodlay olmaydilar. Shu bois, dars jarayonini an’anaviy “o‘qituvchi-o‘quvchi” ma’ruza usulidan “o‘quvchi-o‘quvchi” yoki “o‘quvchi-muhit” interfaol shakliga o‘tkazish davr talabidir.

Asosiy qism: Boshlang'ich sinfda interfaol metodlarning psixologik-pedagogik asoslari

Interfaol ta'lim – bu o'quvchilarning o'zaro hamkorligiga, faol ishtirokiga va axborot almashinuviga asoslangan jarayondir. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatishda ushbu metodlarning zaruriyati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Kommunikativ kompetensiyani erta rivojlantirish:Zamonaviy ta'limda til o'qitishning asosiy maqsadi — grammatik bilimlarni yodlash emas, balki real kommunikativ vaziyatlarda tilni qo'llashdir. Interfaol metodlar:

dialogik nutqni shakllantiradi;muloqot madaniyatini rivojlantiradi;nutqni mazmunli kontekstda shakllantiradi.

Bu esa ingliz tilini tabiiy o'rganishga yordam beradi.^[2]

O'quvchi faolligini ta'minlash:An'anaviy o'qitish jarayoni o'qituvchi markazida bo'lsa, interfaol yondashuvda o'quvchi faoliyat markaziga aylanadi.

Bu orqali:bilish jarayoniga ichki ehtiyoj ortadi;

mustaqil fikrlash shakllanadi;o'quvchi javobgarligi kuchayadi.Faol o'quvchi ko'proq eslaydi, tezroq o'rganadi.

Diqqat barqarorligining qisqaligi: Kichik maktab yoshidagi bolalar diqqatini bir narsaga o'rtacha 10-15 daqiqa davomida jamlay oladilar. Interfaol metodlar faoliyat turlarini tez-tez o'zgartirish (tinglash, gapirish, harakatlanish) imkonini beradi, bu esa bolani zerikib qolishdan asraydi.^[3]

Harakatga bo'lgan tabiiy ehtiyoj: Bolalar tabiatan harakatchan. J.Asher tomonidan ishlab chiqilgan **TPR (Total Physical Response – Jismoniy harakat orqali munosabat)** metodi aynan shu ehtiyojga asoslangan. Masalan, o'qituvchi "Stand up" yoki "Touch your nose" deganda, bola so'zni tarjima qilmasdan, harakat orqali tushunadi va bajaradi. Bu yondashuv:fonetik eshituvni rivojlantiradi;stressiz o'rganishga imkon beradi;buyruqlar orqali tez o'zlashtirishni ta'minlaydi. Ingliz tilini boshlang'ich bosqichida o'rgatishda TPR quyidagi qo'shimcha afzalliklarni beradi :

-murrakab grammatik tushunchalarni izohsiz ,tabiiy qabul qilish imkonini yaratib beradi o'quvchilarga;

-dars jarayonida xotira yuklamasini kamaytiradi,stressni bartaraf yordam etadi;

-o'quvchilarni birdamlikda harakat qilishiga undab,sinf dinamikasini kuchaytirishga yordam beradi;

Shu sababdan TPR faqat buyruqlar berish metodi emas, balki tilni tabiiy yo'l bilan rivojlantiruvchi psixolingvistik hisoblanadi. Bu pedagogik jihatdan zarur, chunki bu yoshda xotira motorika bilan chambarchas bog'liq.

Til to'sig'ini (Language barrier) erta bartaraf etish: An'anaviy usulda xato qilishdan qo'rqish hissi kuchli bo'ladi. Interfaol o'yinlarda esa bola o'yinga berilib, qanday tilda gapirayotganini sezmay qoladi va natijada nutqiy to'siqlar tabiiy ravishda yo'qoladi.

Amaliy tahlil: Samarali interfaol metodlar

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tili ko'nikmalarini shakllantirishda quyidagi interfaol texnologiyalar yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda:

Geymifikatsiya (O'yin texnologiyalari): O'yin shunchaki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ta'limiy maqsaddir. Masalan, "Bingo", "Simon says" yoki "Word Chain" (So'z zanjiri) kabi o'yinlar orqali bolalar yangi lug'atni majburiy yodlashsiz o'zlashtiradilar. Bu yerda pedagogik zaruriyat motivatsiyani ushlab turishda namoyon bo'ladi.[4]

Role-playing (Rollu o'yinlar): Darslikdagi quruq matnlarni o'qish o'rniga, "At the shop" (Do'konda) yoki "My Family" (Mening oilam) mavzularini sahnalashtirish. Bu usul bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni va real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llash layoqatini rivojlantiradi.

Jigsaw: Bu metodda sinf "mutaxassislar guruhleri"ga bo'linib, har bir guruh materialning bir qismini o'rganadi va o'z tengdoshlariga tushuntiradi. Natijada: axborotni qayta ishlab chiqish ko'nikmasi; muloqot va hamkorlik; tanqidiy fikrlash rivojlanadi. Hozirgi yosh avlodni har tomonlama tilga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun o'qituvchilar dars davomida bu metoddan foydalanadi bu esa bizga turli qulayliklarni keltirib chiqaradi. Bunga bir misol sifatida bolalarda tanqidiy fikrlashi o'sadi va bir- birlari bilan muloqat qilish orqali muloqatchanlik rivojlanadi.

Multimedia va vizualizatsiya: Hozirgi avlod – "Z avlodi" vakillari bo'lib, ular vizual axborotni matnli axborotdan ko'ra 60.000 marta tezroq qabul qiladilar. Interfaol doskalar, video-qo'shiqlar va flesh-kartalardan foydalanish majburiy pedagogik shartga aylanib bormoqda.

Pedagogik tajriba va natijalar

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, faqat grammatik mashqlarga asoslangan darslarda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi 40-50% ni tashkil etsa, interfaol metodlar qo'llanilgan darslarda bu ko'rsatkich 85-90% gacha ko'tariladi. Buning sababi,

interfaol usullarda o‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Ular ingliz tilini "fan" sifatida emas, balki "muloqot vositasi" sifatida qabul qila boshlaydilar.[2]

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda interfaol metodlardan foydalanish – bu shunchaki metodik tanlov yoki moda emas, balki qat‘iy **pedagogik zaruriyatdir**. Bu zaruriyat bolaning psixofiziologik rivojlanish xususiyatlari, zamonaviy ta‘lim standartlari va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish maqsadi bilan asoslanadi.

O‘qituvchi dars jarayonini qanchalik qiziqarli, rang-barang va harakatga boy qilsa, bolada tilga bo‘lgan mehr shunchalik erta uyg‘onadi. Boshlang‘ich sinfdan qo‘yilgan to‘g‘ri poydevor kelajakda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning garovidir. Shu bois, har bir ingliz tili o‘qituvchisi o‘z faoliyatida an‘anaviy qoliplardan chiqib, innovatsion interfaol texnologiyalarni dadil qo‘llashi lozim.[5]

Ushbu metodlar o‘quvchilarning tabiiy bilish ehtiyojiga mos keladi, tilni muloqot asosida o‘zlashtirishga imkon yaratadi, motivatsiyani kuchaytiradi hamda kommunikativ kompetensiyaning erta shakllanishini ta‘minlaydi. Interfaollik shunchaki metodlar majmuasi emas, balki shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning zamonaviy paradigmasi sifatida ta‘lim jarayonining sifatini oshiradi va o‘quvchilarning oson bilim olishiga yordam beradi. Interfaol metodlar, xususan TPR, rolli o‘yinlar va jigsaw kabi yodashuvlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilar uchun eng mos, eng tabiiy va eng samarali ta‘lim muhiti yaratishga yordam beradi. Bu metodlar orqali o‘quvchilar nafaqat ingliz tilini o‘rganadi, balki muloqot, hamkorlik, ijodkorlik kabi universal kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. O‘qituvchilar interfaol metodlarni to‘g‘ri tanlagan taqdirda, dars jarayoni bolalar uchun qiziqarli, mazmunli va samarali bo‘ladi. Natijada ingliz tilini erta bosqichdan o‘zlashtirish yanada osonlashadi va barqaror kompetensiyalar shakllanadi. Buning natijasida o‘quvchilarda muloqotga kirishish, bir –biriga savol berish, fikr bildirish ko‘nikmalari rivojlantiradi. Shu bilan birgalikda o‘quvchilarning tilni o‘rganishga bo‘lgan ijobiy munosabati va ichki motivatsiyalari shakllanadi.[3] O‘qituvching darslari qiziqarli, mazmunli va samarali kechadi. Shunday qilib, interfaol metodlar – nafaqat pedagogik texnika, balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi, o‘qitishning sifat va

samaradorligini oshiruvchi zamonaviy ta'lim konsepsiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Interfaol metodlar o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni ongli va puxta o'zlashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning faolligi, motivatsiyasi va ijodiy salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, ularni maktab bosqichida keng qo'llash bo'lajak yoshlarning kompetensiyasini va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, interfaol metodlarni ta'lim jarayoniga tizimli va maqsadli joriy etish dolzarb pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. Cameron, L. (2001). Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press.
3. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
4. Pinter, A. (2006). Teaching Young Language Learners. Oxford University Press.
5. Brown, H. D. (2007). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson Education.